INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA XALQARO TAJRIBA

Mo'minova Dilnoza Muhiddin qizi
Buxoro davlat universiteti
Yurisprudensiya kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: mominovad99@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi tushunchasi, jazoning tayinlanish asoslari, muddatlari va o'tash tartibi, Jinoyat kodeksida qaysi jinoyatlar uchun muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi nazarda tutilganligi, qanday holatlarda asosiy jazo tariqasida tayinlanishi, qaysi jazo turlariga qo'shimcha jazo sifatida tayinlanishi, turli mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida muayyan huquqdan mahrum qilish nafaqat jinoyatlar va nojo'ya xatti-harakatlar uchun jinoiy jazo sifatida emas, balki "jinoiy oqibatlari", "xavfsizlik choralari" kabi turli xil xususiyatlarga ega bo'lishi, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini tayinlashda xalqaro tajriba va olimlarning ilmiy mulohazalari atroflicha yoritilgan.
Kalit so'zlar: jinoyat, muayyan huquqdan mahrum qilish, jinoiy jazo, jazo tayinlash, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, xavfsizlik choralari.

Abstract: This article explores the concept of the punishment of deprivation of a specific right, the grounds for its imposition, its terms, and the execution procedure. It examines which offenses under the Criminal Code entail this penalty, the circumstances under which it is applied as a primary punishment, and the types of sentences to which it serves as a supplementary measure. Furthermore, the article analyzes international experience and scholarly perspectives, highlighting that in the criminal legislation of various countries, the deprivation of specific rights is categorized not only as a criminal penalty for crimes and misconduct but also as "criminal consequences" or "security measures."
Keywords: crime, deprivation of a specific right, criminal punishment, sentencing, restriction of liberty, imprisonment, security measures.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются понятие наказания в виде лишения определенного права, основания его назначения, сроки и порядок исполнения. Анализируется, за какие преступления в Уголовном кодексе предусмотрено данное наказание, в каких случаях оно назначается в качестве основного наказания, а к каким видам наказаний применяется как дополнительное. Также освещается международный опыт и научные взгляды ученых, отмечается, что в уголовном законодательстве различных стран лишение определенного права может иметь различные характеристики, такие как «уголовные последствия» или «меры безопасности», а не только выступать в качестве уголовного наказания за преступления и проступки.
Ключевые слова: преступление, лишение определенного права, уголовное наказание, назначение наказания, ограничение свободы, лишение свободы, меры безопасности.

KIRISH

Bizga ma'lumki, "Jinoiy jazo tizimini erkinlashtirishga doir chora-tadbirlar" ulkan ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Jinoyat kodeksidagi jinoyat sodir etgan shaxs yetkazilgan moddiy zararni to'liq qoplagan taqdirda, sud tomonidan unga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlashga yo'l qo'ymaydigan normalar ancha kengaytirildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947 –son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni asosida tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasining 2.3-bandida ham “Jinoyat va jinoyat -protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish” vazifasi belgilab olingan.

Bu borada asosiy e’tibor nafaqat qonunlarga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish, balki inson manfaatlariga xizmat qiladigan va ularning qonun bilan qo’riqlanadigan huquq va manfaatlarini ta’minlaydigan amali ishlarni ro’yobga chiqarishga qaratildi.

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo’llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir (O’zR JK 42-moddasi).

Jinoiy jazo davlat majburlovining eng keskin shakli hisoblanadi. Uning zamirida huquqiy tartibotni saqlash zaruriyati yotadi. Ushbu zaruriyat huquq – manfaatlar qo’riqchisi degan umumiy tushunchadan kelib chiqadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazo chorasi sifatida yaqqol ifodalangan preventiv xususiyatga egadir. Mazkur jazoning qo’llanishi asosiy jihatdan, egallagan lavozimi yoki amalga oshiriladigan faoliyati bilan bog’liq holda mavjud imkoniyatlarni suiiste’mol qilish bilan bog’liq bo’lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar tomonidan mazkur jinoyatlarni qayta sodir etilishining oldini olish zaruriyati bilan shartlanadi.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o’z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini xorijiy davlatlarda o’tash tartiblari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishini amalga oshirishda tizimli hamda qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, shuningdek, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy-huquqiy va statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Davlatimizda olib borilayotgan jinoiy jazolarni liberallashtirish, sud-huquq islohotlari, jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid tahlillar tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etadi.

TADQIQOT NATIJALARI

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga ilova qilingan “O’zbekiston Respublikasi Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish” konsepsiyasidan kelib chiqib, “Jinoyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo’yicha samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish, fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyatni singdirish, ularni Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish ruhida tarbiyalash” nazarda tutilgan bo’lib, o’z navbatida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog’liq bo’lmagan jazolarning samaradorligini oshirishga qaratilgandir.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazo turlari orasida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog’liq bo’lmagan jazolar o’z ahamiyatiga ko’ra alohida o’rin egallaydi. Bu yerda so’z sodir etligan jinoyat uchun insonni jamiyatdan ajratish, uni ozodlikdan mahrum qilish, uning muayyan huquqlarini cheklash, unga davlat nomidan majburllov choralarini qo’llash haqida emas, balki boshqa jazo turini qo’llash haqida bormoqda.

Bunday jazo turidan biri bu – **muayyan huquqdan mahrum qilish** jazosidir.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazo chorasi sifatida sud tomonidan tayinlangan muddat davomida aybdorning sodir etgan jinoyati bilan bevosita bog’liq bo’lgan korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashni yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug’ullanishini taqiqlashdan iboratdir.

Jinoyat kodeksi 45-moddasi 1-qismi mazmuni bo’yicha, muayyan huquqdan mahrum qilish ko’rinishidagi jazo chorasini tayinlashda taqiqlash faqat muayyan lavozimni egallashga yoki muayyan faoliyatni amalga oshirishga taalluqli bo’ladi. Mahkum egallash huquqidan mahrum bo’layotgan lavozimlar sud hukmida aniq belgilangan bo’lishi kerak.

Xususan, sud mahkumning savdo sohasida moddiy javobgar lavozimlarni egallashini taqiqlashi mumkin. Biroq, uning mazkur sohadagi boshqa lavozimlarda ishlashini man qilishga haqli emas.

Jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs u yoki lavozimni egallash huquqidan mahrum etilishi yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Shaxs uchun shu ikkala huquqlarni amalga oshirish imkoniyatini taqiqlashga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Jinoyat kodeksi 45-moddasi 2-qismidagi holatlarga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilishni faqat aybdor deb topilgan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat mazkur shaxsning egallab turgan lavozimi bilan yoki uning faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan hollarda jazo chorasi sifatida qo'llash mumkin. Shu munosabat bilan Oliy sud Plenumining tushuntirishi bo'yicha, "aybdor egallagan lavozim yoki xizmat faoliyati bilan bevosita bog'liq holda jinoyat sodir etgan har bir holda, sud jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib mahkumni u yoki bu mansabni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish masalasini muhokama qilishi shart". Bunday jazoni tayinlash paytida hukmning qaror qismida sudlanuvchi shug'ullanishi mumkin bo'lmagan mansab xarakteri yoki faoliyat turi aniq ko'rsatilishi kerak.

Jazo chorasini muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qilish ko'rinishida tayinlash holatida sudlar mahkumning hayot kechirishini ta'minlovchi tizimda uning amalga oshirayotgan faoliyatining o'rniga, shuningdek, darajasiga e'tiborni qaratishlari lozim. Xususan, agar amalga oshirilayotgan faoliyat mahkumning asosiy daromad manbayi bo'lsa, mazkur jazo turini tayinlashga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Muayyan huquqdan mahrum etish – bu **muddatli jazo chorasi** bo'lib, asosiy jazo chorasi sifatida 1 yildan 5 yilgacha, qo'shimcha jazo chorasi sifatida esa 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatda tayinlanadi.

Shuni alohida aytib o'tish lozimki, muayyan huquqdan mahrum qilish, qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, hukmning tavsif qismida, albatta, ko'rsatib o'tilishi kerak.

Hozirgi kunda amaldagi Jinoyat kodeksida jami 205 ta jinoyat tarkibi nazarda tutilgan bo'lib, ular 97-moddadan 302-moddagacha bo'lgan qoidalarga muvofiq tartibga solingan. Ushbu jinoyatlarga nisbatan belgilangan sanksiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 49 ta modda sanksiyasida ya'ni 17,1% muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo turi sifatida belgilangan.

Quyida keltirilgan misollar orqali JKning ayrim moddalari bo'yicha muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida belgilanganligi ilmiy asosda tahlil qilish mumkin:

114-modda.Jinoiy ravishda homila tushirish (abort)

Ushbu norma homila tushirish bo'yicha noqonuniy tibbiy amaliyotlarni taqiqlaydi. Moddaning sanksiyasida muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida nazarda tutilgan bo'lib, u uch yilgacha qo'llanishi mumkin.

133-modda. Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini buzish.

Moddada qonuniy asosga ega bo'lmagan holda inson a'zolarini yoki to'qimalarini olish bilan bog'liq huquqbuzarliklar jazolanishi belgilangan. Ushbu holatda besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida qo'llanilishi mumkin, bu esa sog'liqni saqlash sohasida noqonuniy operatsiyalar o'tkazilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish shaklidagi jazoning belgilangan muddati ko'rsatilmaganligi jinoyat qonunining noto'g'ri qo'llanilishi sifatida qaraladi va hukmning bekor qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Professor olim M.H.Rustambayening ilmiy asarlarida qayd etilganidek, muayyan huquqdan mahrum etish – jazoning aralash turi bo'ladi, ya'ni u ham asosiy jazo shaklida, ham qo'shimcha jazo shaklida bo'lishi mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki, ushbu jazoni asosiy jazo sifatida qo'llash faqat u JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko'rsatilgan holatlarida mumkin bo'ladi.

Muayyan huquqdan mahrum etishning qo'shimcha jazo sifatida belgilanishi esa, JK 45-moddasi 3-qismiga muvofiq, har qanday holatda, hatto uning qo'llanishi JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko'rsatilmagan holatlarida ham mumkin bo'ladi. Bunda shu turdagi jazoning qo'llanilishi albatta hukmning asoslovchi qismida JK 45-moddasi 3-qismiga havola qilingan holda tavsiflanishi

lozim. Ayni paytda muayyan huquqdan mahrum qilish moddaning sanksiyasida u asosiy jazo sifatida nazarda tutilgan holatlarda qo'shimcha jazo sifatida belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrdagi O'RQ-418-sonli Qonuni bilan mazkur moddaga jinoyat sodir etilishi natijasida odam o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqqan holatlardan tashqari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jazo tayinlanmasligi to'g'risida o'zgartirish kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga muvofiq sud tomonidan JKning 57-moddasini qo'llash (yengilroq jazo tayinlash) holatidan tashqari tayinlanishi majburiy bo'lgan muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazoni qo'llamaslik, hukmda uning muddatini ko'rsatmaslik, ularni qo'shish qoidalariga rioya qilmaslik hukmning bekor bo'lishiga asos bo'ladi.

Jinoiy jazoning ushbu turi, birinchi navbatda jinoyat sodir etgan shaxslarning jinoiy faoliyatining davom ettirilishiga to'sqinlik qilish, uni maxsus oldini olish maqsadlariga erishishga qaratilgan. Aynan shuning uchun uni ijro etish muddatlarini hisoblash jinoyat qonuniga muvofiq sudlangan shaxsning ozodlikda bo'lishi paytida ya'ni u jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan asosiy jazoga hukm qilinganida hisoblanadi. Shu sababli JK 45-moddasi 4-qismi "Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish yoki intizomiy qismga jo'natish jazosiga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi. Bu jazo boshqa asosiy jazolarga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda va mahkum shartli hukm qilinganda uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi", deb belgilab berilgan.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi eng ko'p ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan qo'shib tayinlanishi mumkin. Muyyan huquqdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan aksariyat sanksiyalarda ushbu ikki turdagi jazo bilan birgalikda qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan.

Bu holat shundan dalolat beradiki, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi, asosan, huquqbuzarning kasbiy yoki boshqa qonuniy faoliyat yuritish imkoniyatlarini cheklash orqali jazo ta'sirini kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi. Ayniqsa, jinoiy faoliyat professional yoki mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, ushbu jazo turi ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan qo'shib tayinlanishi orqali shaxsning kelgusida shu sohada faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo hamda boshqa choralarni qo'llash masalasi ko'plab mamlakatlarda penitensiar muassasalarda mahkumlarning haddan tashqari ko'pligi bilan bog'liq muammolarning dolzarbligi ortib borayotganligi sababli tobora aniqroq xalqaro-huququqiy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

So'nggi o'n yilliklar davomida jahon jinoyat siyosatining tendesiyasi mahkumni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni kengashtirish bilan bog'liq.

Bu jamoatchilik bilan aloqalar sohasiga, balki sport sohasiga ham ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Masalan, "Ayrim shaxslarga nisbatan sanksiyalar" xalqaro antidoping kodeksining 10-moddasida sport tadbirlari natijalarini bekor qilish va diskvalifikatsiya qilish bilan bog'liq jazo turi to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga oladi.

Jazo tushunchasi bilan birga "xavfsizlik choralari" tushunchasi zamonaviy xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida ham mavjud. Qilmishning huquqiy oqibatlarining bunday "ikki tomonlama" tizimi Avstriya, Germaniya, Shveysariya mamlakatlari Jinoyat kodeksi uchun odatiy hol hisoblanadi. Bunday choralar birinchi navbatda profilaktika maqsadlariga qaratilgan. Xavfsizlik choralari jazodan farqli o'laroq, qo'rqitish maqsadini ko'zlamaydi, balki ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan yoki sodir etmagan, lekin sodir etishi mumkin bo'lgan shaxsning "xavfli holatini" bartaraf etishga qaratilgan. Xavfsizlik choralari bilan amalga oshiriladigan profilaktika maqsadiga shaxsni neytrallashtirish yoki

axloqini qayta tiklash orqali erishiladi. Xavfsizlik choralarini qo'llash jazoni qo'llash kabi aniq belgilangan muddat chegaralanishi mumkin emas.

Turli mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida muayyan huquqdan mahrum qilish nafaqat jinoyatlar va nojo'ya xatti-harakatlar uchun jinoiy jazo sifatida emas, balki "jinoiy oqibatlari", "xavfsizlik choralari" kabi turli xil xususiyatlarga ega bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan jazo turning maqsadli yuki, uni tayinlash asoslari, ularni hisoblash muddati, tartbi, shuningdek, ijro etilish shartlari va u ko'zda tutilgan harakatlar doirasi har doim bir xil emas.

Har bir davlatning jinoyat qonunchiligida jinoyat-huquqiy choralarning o'ziga xos tizimi va tasnifi mavjud. Jazolarning bunday tasnifi ularni tayinlash tartibini belgilaydi. Asosiy jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish Fransiya, Ispaniya, Bolgariya Jinoyat kodekslarida nazarda tutilgan.

Muayyan lavozimlarni egallash va muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish xorij mamlakatlarida davlat majburlash choralari sifatida qo'shimcha jazo yoki jinoyat sodir etishning qo'shimcha huquqiy oqibatlari sifatida keng qo'llaniladi va haqli ravishda eng samarali usul sifatida e'tirof etiladi.

Yevropa Jinoyat kodekslari quyidagi huquqlarni taqiqlashni o'z ichiga oladi:

Avtotransport vositasini boshqarishni taqiqlash, GFR jinoyat kodeksida transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ruxsatnomadan mahrum etish;

Lavozimni egallash, saylanish va ovoz berish huquqidan mahrum etish;

Kasbiy faoliyatni taqiqlash;

Lavozimidan chetlashtirish (Avstriya Jinoyat kodeksi);

Qirollik armiyasida abadiy yoki ma'lum vaqt xizmat qilish huquqlari (harbiy xizmatga bo'lgan huquqlar)ni ta'qiqlovchi fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish (Avstriya Jinoyat kodeksi);

Fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish, ijtimoiy masalalar bo'yicha ovoz berish huquqidan mahrum qilish (Norvegiya Jinoyat kodeksi);

Ilmiy darajalardan, unvonlardan, davlat vakolatlaridan mahrum qilish, davlat funksiyalarini bajarish, davlat lavozimlarida ishlash yoki jamoat vazifalarini bajarish huquqidan mahrum qilish, saylanish huquqidan mahrum qilish, qurol olib yurish, fuqaro gvardiyasida qatnashish va armiyada xizmat qilishni ta'qiqlash (Belgiya jinoyat kodeksi).

AQSh federal qonuniga ko'ra, korrupsiya jinoyatlari uchun sudlangan shaxslar, masalan, poraxo'rlik uchun doimiy ravishda muayyan lavozimlarni egallash yoki muyyan sohalarda ishlash huquqidan mahrum etiladi.

MDH model jinoyat kodeksi muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish deganda "davlat xizmatida, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida, har qanday mulk shaklidagi korxonalarda yoki jamoat birlashmalarida lavozimlarni egallashni taqiqlash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish"ni tushunadi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 50-moddasiga binoan, korrupsion jinoyatlarni sodir etganlik uchun, ma'lum lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish majburiy bo'lib, davlat xizmatida, sud hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida, Qozog'iston Respublikasi Milliy banki va uning idoralarida, ustav kapitalida davlat ishtirokining ulushi ellik foizdan ortiq bo'lgan davlat tashkilotlarida, shu jumladan milliy boshqaruv kompaniyalarida, milliy xoldinglar, milliy kompaniyalar, milliy institutlar, aksiyadori davlat bo'lgan korxonalar, ularning sho'ba tashkilotlarida muayyan lavozimlarda ishlashni umrbod taqiqlashdan iborat.

Fransiyaning Jinoyat kodeksida har qanday sanksiyalar jazo deb ataladi va ular asosiy va qo'shimcha, jinoiy, axloqan tuzatuvchi va politsiyachi kabi turlarga bo'linadi. Jinoyat sodir etganlik uchun asosiy jazo turi sifatida haydovchilik guvohnomasidan mahrum etish, ov qilishni, cheklar berishni ta'qiqlash va h.k.ni nazarda tutgan.

Fransiya Jinoyat kodeksi 434-40 va 434-41-moddalari kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatni taqiqlash, haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilish, qurol saqlash yoki olib yurishni taqiqlash ko'rinishidagi jazodan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Bunday qilmishlar uchun ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va jarima jazosi belgilangan.

Amaldagi Germaniya jinoyat qonunchiligida qo'shimcha jazo sifatida transport vositasini boshqarishni taqiqlash ko'zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida muayyan lavozimlarni egallash va muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish shaklidagi jazoning mavjudligi chet el qonunchiligiga mos keladi. Chunki mazkur huquqlar uzoq vaqt davomida rasmiy yoki boshqa faoliyatdan unga berilgan huquqlarni suiiste'mol qilgan shaxsdan olib tashlanishi mumkin.

Chet el qonunchiligida muayyan lavozimlarni egallash va muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish masalasini o'rganish quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

1.Bizning jinoyat kodeksimizda faqatgina muayyan huquqdan mahrum qilish (muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish) jazosini nazarda tutuvchi qonunchiligimizdan farqli o'laroq, xorijiy davlatlar jinoyat kodekslari muayyan lavozimlarni egallash, muayyan faoliyat yoki kasb bilan shug'ullanish, saylash va saylanish huquqi va h.k. bilan bog'liq bo'lgan jinoiy-huquqiy choralarning kengaygan ro'yxatini nazarda tutadi.

2.Chet el qonunchiligiga binoan mazkur choralarning o'ziga xos xususiyati cheklash hamda ta'qiqlash muddati O'zbekiston qonunchiligiga nisbatan uzoq muddatligida namoyon bo'ladi, muayyan huquqlardan mahrum etishning maksimal muddati o'n yil, ayrim hollarda esa umrbod muddatni tashkil etadi.

3.Buyuk Britaniyaning Jinoyat kodeksida, hattoki jinoyat qonuni sanksiyasida nazarda tutilmagan bo'lsa ham, muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan muqobil ravishda ishlatilishi mumkin.

4.Xorijiy davlatlarning jinoyat kodeklarining aksariyatida qonun chiqaruvchi kasbiy faoliyatni taqiqlashni va kasb bilan bog'liq bo'lmagan muayyan faoliyatni taqiqlashni belgilaydi, ularga mustaqil jazo maqomini belgilaydi.

5.Mahkumni tayinlangan jazoni o'tashdan bo'yin tovlash faktlariga davlatni javob berish masalasi turli yo'llar bilan hal etiladi: jinoyatning mustaqil tarkibi mavjudligi; uni o'tashdan bo'yin tovlaganlik uchun og'irroq jazo turi bilan almashtirish; sud hukmida dastlabki jazoni ijro etishdan bo'yin tovlaganlik uchun almashtiriladigan jazoning turi va miqdori belgilanishi

REFERENCES

1.M.X.Rustambayev O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. 1. 429-bet
2. M.X.Rustambayev Jinayat huqiqi. Uliwma bo'lim. No'kis 2008, 62-bet
3.O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining Qarori "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti tog'risida". https://lex.uz/docs/-1455976
4. Воскресов Б.Н. Лишение права занимать определенные должности или заниматься определенной деятельностью как дополнительный вид наказания / Экономика и право: проблемы теории и практики ISSN 0321–3056 ИЗВЕСТИЯ ВУЗОВ. СЕВЕРОКАВКАЗСКИЙ РЕГИОН. ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ. 2015. № 4
5. Khayitovich Y.D., Khurozovich N. E., Mamatovich K. K. Legal basis of solution of issues related to the citizenship of the republic of uzbekistan and prospects of their development //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – Т. 14. – №. 6.
6.Норбутаев Э.Х. Административно-процессуальные основы лицензирования оборота гражданского и служебного оружия в республике узбекистан //science and world. – 2013. – С. 29.
7. Нарбутаев Э., Еттибаев Г. Фаолиятни айрим турларини лицензиялаш ва рухсат бериш тартиботларини янада либераллаштиришнинг айрим масалалари //Общество и инноватsiи. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 385-392. 35. Нарбутаев Э. Лицензиялашнинг маъмурий-ҳуқуқий табиати ҳамда ички ишлар органларининг рухсат бериш фаолияти //Общество и инноватsiи. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 40-47. 84 36. Нарбутаев Э., Еттибаев Г. Некоторые вопросы дальнейшей либерализатsiи лицензионно-разрешительных процедур для отдельных видов деятельности //Общество и инноватsiи. – 2021. – Т. 2. –№. 8/S. – С. 385-392.

8.Норбутаев Э. Ички ишлар органларининг лицензиялаш фаолиятининг ҳуқуқий асосларини ривожлантиришнинг айрим масалалари //Общество и инноватsии. – 2021. –Т. 2. – №.5. – С. 69-77.
9. Норбутаев Э.Х. Ички ишлар органларининг лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш фаолияти бўйича ваколатларини таҳлили //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 56-60.
10. Таштемиров А.А. Йулларда харакатланишни тартибга солишнинг хукукий жихатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти //siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 111-115.
11.Таштемиров А.А. Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик жиноятларига қарши курашишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 320-327.
12.Special Issue. – С. 42-48. 10. Qushboqov, S., & Yetmishboyev, M. (2022). Jazoni ijro etish muassasalari ishtirokida tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalarning mohiyati va ahamiyati. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(9), 76-80.
13. Таштемиров А.А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 42-48.
14. Охунов З., Қушбоқов Ш. Талабалар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 34-39.
15. Qushboqov, S. (2023). Jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs sifatidagi tushunchasini yoritishda nazariy tahlil. Центральноазиатский журнал образования и инноватsий, 2(2 Part 2), 49-52.
16. Қушбоқов, Ш. (2023). Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи. Models and methods in modern science, 2(5), 114-117.
17. Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасалари фаолиятида тадбиркорликнинг ўрни //Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 16-20.
18. Нарбутаев Э. Административно–правовой характер лицензирования и лицензионная деятельность органов внутренних дел //Общество и инноватsии. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 40-47.